

Normativ-huquqiy hujjatni huquqiy monitoring qilish hamda korrupsiyaga qarshi
ekspertizadan o'tkazish bo'yicha tahliliy

MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh yuriskonsulti G.Aliev tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-noyabrdagi PQ-4505-son qarori bilan tasdiqlangan "Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining huquqiy monitoringini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 31-oktyabrda 3470-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 3470) Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyoti hamda Normativ-huquqiy hujjatlarning huquqiy monitoringi va korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish bo'yicha O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi yuridik xizmatining 2024-yil uchun ish rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6240-son Farmoni (bundan buyon matnda Farmon deb yuritiladi) huquqiy monitoring qilindi hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazildi.

Huquqiy monitoringni amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjat bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi va quyidagicha baholandi:

a) qonunosti hujjatlari qabul qilinishida qonun hujjatlari normalarining ma'nolari buzilmagan;

b) normativ-huquqiy hujjatlarda huquqiy-texnik xarakterdagi xatolar aniqlanmadi;

d) normativ-huquqiy hujjatni qo'llashda uning ma'nosi buzilmagan;

e) normativ-huquqiy hujjatni qo'llashda noqonuniy yoki asossiz qarorlar, harakat (harakatsizlik)lar mavjud emas;

f) normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga oid omillar, jumladan:

so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi;

noaniq va asossiz havolalarning qo'llanilishi;

boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan qarama-qarshiliklarning mavjudligi;

bir-birini takrorlovchi va kollizion normalar;

diskresion vakolatlarining kengligi;

vakolatlarining noaniqligi;

davlat organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari va vazifalari mavjudligi;

davlat organi tomonidan o'z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi;

vazifani yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida zarur bo'lgan vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi;

o'z vaqtida tartibga solinmaslik;

manfaatlar to'qnashuvi;

afzalliklarning asossiz belgilanishi;

normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish;

huquq va majburiyatlarning nomutanosibliigi;

belgilangan qoidalardagi istisnolarni asossiz ravishda qo'llanilishi;

ortiqcha va asossiz talablar belgilanishi;

vaqt chegaralarining noaniqligi;

shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar aniqlanmadi.

Shu bilan bir qatorda, umumiy xarakterdagi normativ-huquqiy hujjatlar va maxsus normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligi tahlil qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-819-son Qonuni 2023-yilning 27-avgustidan kuchga kirishi munosabati bilan Farmonga o'zgartirish kiritish zarurati mavjudligi aniqlandi. Qonuning 24-moddasida Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash orqali ta'minlanishi belgilangan. Faqat O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqarilayotgan mahsulotgina muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash ob'ekti bo'lishi mumkin.

Mazkur Qonun talabini inobatga olib, Farmonning 3-bandi ikkinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"oziq-ovqat mahsulotlarini muvofiqligini majburiy ravishda tasdiqlash, mahsulotlarning texnik reglament talablariga asosan deklaratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bunda, ushbu mahsulotlarni tayyorlovchilar (ishlab chiqaruvchilar), yetkazib beruvchilar va sotuvchilar ularning texnik reglamentlar va standartlar bilan belgilangan majburiy talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun javobgar hisoblanadi;"

Shuningdek, Farmon O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga muvofiqligi o'rganib chiqildi. Jahon Savdo Tashkiloti TBT Bitimining 9.1 va 9.2-bandlarida belgilangan xalqaro muvofiqlikni baholash tizimi qoidalariga hamda ILAC MRA/IAF MLA ko'ptomonlama kelishuvlarda o'rnatilgan transchegeraviy akkreditatsiya tamoyillariga (ILAC-G21:09/2012) rioya qilish zaruriyati mavjudligini inobatga olib, Farmonning 3-bandi to'rtinchi xatboshisini chiqarib tashlash taklifini ma'qullash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarga asoslanib hamda mazkur normativ-huquqiy hujjat qabul qilinish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilganligini inobatga olib, bosh yuriskonsult

Xulosa qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6240-son Farmonida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar mavjud emas;


2. Farmonning 3-bandi ikkinchi xatboshisini quyidagi yangi tahrirda bayon etish zarurati mavjud:

"oziq-ovqat mahsulotlarini muvofiqligini majburiy ravishda tasdiqlash, mahsulotlarning texnik reglament talablariga asosan deklaratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bunda, ushbu mahsulotlarni tayyorlovchilar (ishlab chiqaruvchilar), yetkazib beruvchilar va sotuvchilar ularning texnik reglamentlar va standartlar bilan belgilangan majburiy talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun javobgar hisoblanadi;"

3. Farmonning 3-bandi to'rtinchi xatboshisini chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

Ilova: cheklist, taqqoslash jadvali

Bosh yuriskonsult



G. Aliyev

25.03.2024-yil

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6240-son Farmonida Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash bo‘yicha

CHEKLIST

Yo‘nalishlar	Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	Javob			Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omil mavjud bo‘lgan norma va uning asoslanishi
Normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	so‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi	bor	yo‘q	+	
	noaniq va asossiz havolalarning qo‘llanilishi	bor	yo‘q	+	
	normativ-huquqiy hujjatlarda qarama-qarshiliklarning mavjudligi	bor	yo‘q	+	
Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	diskretsiyon vakolatlarining kengligi	bor	yo‘q	+	
	vakolatlarining noaniqligi	bor	yo‘q	+	
	davlat organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari va vazifalari mavjudligi	bor	yo‘q	+	
	davlat organi tomonidan o‘z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi	bor	yo‘q	+	
	vazifani yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida zarur bo‘lgan vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor	yo‘q	+	
	o‘z vaqtida tartibga solinmaslik	bor	yo‘q	+	
	manfaatlar to‘qnashuvi	bor	yo‘q	+	
	afzalliklarning asossiz ravishda belgilanishi	bor	yo‘q	+	
	normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish	bor	yo‘q	+	
	huquq va majburiyatlarning nomutanosibliigi	bor	yo‘q	+	

Ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi	bor	yo'q	+	
	belgilangan qoidalaridagi istisnolarning asossiz ravishda qo'llanilishi	bor	yo'q	+	
	ortiqcha va asossiz talablar belgilanishi	bor	yo'q	+	
	vaqt chegaralarining noaniqligi	bor	yo'q	+	
	to'lovlar miqdorlarining noaniqligi	bor	yo'q	+	
	sanksiyalarning nomutanosibliigi	bor	yo'q	+	
	davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hamda budjetdan tashqari mablag'lar sarflanishining aniq va shaffof tartib-taomillari mavjud emasligi	bor	yo'q	+	
	solliqlar va yig'imlarni hisoblash hamda undirish tartib-taomillarining murakkabligi yoki noaniqligi	bor	yo'q	+	
	davlat korxonalarini hamda o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi	bor	yo'q	+	
	huquq va imtiyozlar beruvchi hamda ma'muriy tartib-taomillarni belgilaydigan tanlov (auksion) tartib-taomillaridan bo'yin tovlash imkoniyatini beruvchi normalarning mavjudligi	bor	yo'q	+	
tadbirlarni amalga oshirish usullarining murakkabligi va ularni moliyalashtirish manbalarining noaniqligi	bor	yo'q	+		

Nazorat- tekshirish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	tekshirish va taftish o'tkazish tartibining mavjud emasligi	bor	yo'q	+	
	shikoyat qilinm tartibining mavjud emasligi	bor	yo'q	+	
	shaffoflikni va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar	bor	yo'q	+	
	moliyaviy va boshqa sanksiyalarni qo'llash hamda undirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarda aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi	bor	yo'q	+	
	davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilish shakllari va turlarining mavjud emasligi	bor	yo'q	+	

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyundagi “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6240-son Farmoniga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida taklif yuzasidan

TAQQOSLASH JADVALI

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asoslantirish
<p align="center">O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyundagi “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PF-6240-son Farmoni</p>		
<p>3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq: <i>(ikkinchi xatboshisi)</i> <u>sanitariya-epidemiologik xulosasi majburiy tartibda olinishi lozim bo‘lgan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga nisbatan muvofqlik sertifikatini olish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.</u> Bunda, ushbu mahsulotlarni tayyorlovchilar (ishlab chiqaruvchilar), yetkazib beruvchilar va sotuvchilar ularning texnik reglamentlar va standartlar bilan belgilangan majburiy talablarga muvofiqligini ta‘minlash uchun javobgar hisoblanadi;</p> <p align="center">...</p> <p><i>(to‘rtinchi xatboshi)</i> <u>xalqaro ILAC/IAF tashkilotlari a‘zosi hisoblangan akkreditatsiya idorasi tomonidan akkreditatsiya qilingan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari — muvofiqlikni baholash organlariga milliy akkreditatsiyadan o‘tmagan holda, akkreditatsiya doirasi haqida «O‘zbekiston akkreditatsiya markazi» DKni xabardor qilib, muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga ruxsat beriladi. Bunda, rasmiylashtirilgan muvofiqlikni baholash hujjatlarida ILAC/IAF tashkilotlarining tan olish</u></p>	<p align="center">oziq-ovqat mahsulotlarini muvofiqligini majburiy ravishda tasdiqlash, mahsulotlarning texnik reglament talablariga asosan deklaratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bunda, ushbu mahsulotlarni tayyorlovchilar (ishlab chiqaruvchilar), yetkazib beruvchilar va sotuvchilar ularning texnik reglamentlar va standartlar bilan belgilangan majburiy talablarga muvofiqligini ta‘minlash uchun javobgar hisoblanadi;</p> <p align="center">Chiqarib tashlanmoqda.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-819-son Qonuning 24-moddasiga asosan Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash orqali ta‘minlanishi belgilangan. Faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqarilayotgan mahsulotgina muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash ob‘ekti bo‘lishi mumkin.</p> <p>O‘zbekiston akkreditatsiya markazi 2022 yil 12-sentabrdan Xalqaro laboratoriyalar akkreditatsiyasi xamkorligi (ILAC) akkreditatsiya natijalarini tan olish to‘g‘risidagi ko‘ptomonlamaga bitimiga (ILAC MRA), 2022-yil 27-sentyabrdan esa Xalqaro akkreditatsiya forumining (International Accreditation Forum-IAF) Ko‘ptomonlama akkreditatsiya natijalarini tan olish bitimi (IAF MLA) ishtirokchisi maqomini olgan.</p> <p>O‘zbekiston milliy akkreditatsiya tizimi ishtirokchisi hisoblangan global akkreditatsiya</p>

Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asoslantirish
<p><u>belgilari ko'rsatilishi va ushbu hujjatlar ularning rasmiy veb-saytlarida joylashtirilishi muvofiqlikni baholash organlari tomonidan ta'minlanishi shart.</u></p>		<p>natijalarini e'tirof etish kelishuvlari (ILAC MRA/IAF MLA) mezonlari muvofiq ishtirokchi akkreditatsiya idora o'z hududida akkreditatsiya faoliyatni ko'rsatishi ustivor qilib belgilashi va bu orqali xalqaro miqyosda o'z akkreditatsiya faolyatining tengligini namoyish qilishi belgilangan.</p> <p>JST TBT Bitimning 9.1 va 9.2-bandlarida belgilangan xalqaro muvofiqlikni baholash tizimi qoidalariga hamda ILAC MRA/IAF MLA ko'ptomonlama kelishuvlarda o'rnatilgan transhegeraviy akkreditatsiya tamoyillariga (ILAC-G21:09/2012) rioya qilish zaruriyati tufayli chiqarilmoqda.</p> <p><u>Ma'lumot uchun:</u> ILAC MRA/IAF MLA ko'ptomonlama kelishuvlarmga hamda ILAC-G21:09/2012 hujjatiga muvofiq transhegaraviy akkreditatsiya tamoyillari quyidagilarni nazarda tutadi.:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ishtirokchilar bir-birlarining akkkreditatsiya faolyatini ekvivalent natijalar beruvchi tizim sifatida e'tirof etishilari; - Ko'ptomonlama kelishuv orqali bozor munosabatlarida qaytariluvchi akkreditatsiya faoliyatiga chek qo'yish; - mahalliy akkreditatsiya idorasi bo'lmagan taqdirdagina xorijiy akkreditatsiya idorasi shu xududda akkreditatsiya xizmatini ko'rsatishi; <p>Ko'ptomonlama kelishuv tarmog'ini kengaytirish va ishtirokchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishi.</p>